

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

**BO'LAJAK HAMSHIRALARDA KREATIV KOMPETENTLIKNI
SHAKLLANTIRISHDA BLOOM TAKSONOMIYASINING PEDAGOGIK
ASOSLARI.**

Ibodova Umida Shuhratillo qizi

*Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish mintaqaviy markazi o'qituvchisi*

ibodovaumida23@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy hamshiralik ta'limida talabalarning faqat tayyor bilimlarni egallashi yetarli emas. Tibbiy amaliyotda to'g'ri, tez va innovatsion qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish, ayniqsa, kreativ kompetentlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada bo'lajak hamshiralarda kreativ kompetentlikni shakllantirish jarayonida Bloom taksonomiyasining pedagogik asoslari chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Kreativ kompetentlik, hamshiralik ta'limi, pedagogik yondashuvlar, ijodiy fikrlash, raqamli ta'lim texnologiyalari, kasbiy kompetensiya,

Kirish. XXI asrda ta'limning global maqsadi – mustaqil fikrlaydigan, muammoni noan'anaviy yechishga qodir, kreativ yondasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Tibbiyot va hamshiralik sohasida bu ayniqsa dolzarb bo'lib, sog'liqni saqlash tizimidagi tezkor o'zgarishlar, yangi kasalliklar va bemorlar ehtiyojlarining xilma-xilligi kasb egalari oldiga yangicha kompetensiyalarni talab qilmoqda. Bunday sharoitda kreativ kompetentlik — ya'ni yangicha fikrlash, muqobil yechimlar ishlab chiqish va kasbiy vaziyatlarga ijodiy yondashish salohiyati — hamshiralik ta'limining ajralmas komponenti sifatida ko'rilmoqda.

Kreativ kompetentlik tushunchasi pedagogika, psixologiya va kasbiy ta'lim sohalarida turlicha izohlangan bo'lsa-da, u, avvalo, shaxsning bilim, ko'nikma va malakalami yangilik yaratish va muammoni original tarzda hal qilishda qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Guilford (1950), Torrance (1966), Runco & Jaeger (2012) tomonidan ishlab chiqilgan nazariy modellarda kreativlik – bu individual tafakkurning faol, innovatsion va moslashuvchan shakli ekanligi ta'kidlangan[3]. Aynan shu nuqtai nazardan kelib chiqib, kreativ kompetentlik nafaqat tabiiy qobiliyat, balki o'qitish va tarbiya jarayonida rivojlantiriladigan sifat yoki qobiliyat sifatida qaralmoqda.

Bloom taksonomiyasi (1956) va uning yangilangan versiyasi (Anderson & Krathwohl, 2001) kreativ kompetentlikni bosqichma-bosqich shakllantirish uchun kuchli nazariy asosni beradi. Taksonomiyaning yuqori darajalari – tahlil, baholash va ayniqsa yaratish (create) bosqichlari – aynan kreativlikni o'stirishga xizmat qiladi. Yaratish bosqichi orqali

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

talaba mustaqil reja tuzadi, yangi g'oyalarni ilgari suradi, amaliyotga innovatsion yondashuvlar kiritadi.

D.G. Ivanova (2021) hamshiralik ta'limida kreativlikni rivojlantirish usullari sifatida muammoli ta'lim, loyiha usuli, reflektiv tahlil, interaktiv muhitlarni qo'llashni tavsiya qiladi. Shuningdek, Yunusova M. (2022) tadqiqotida kreativ kompetentlikni baholashda Bloom taksonomiyasi asosida tuzilgan testlar, ssenariyli topshiriqlar va tahlil asosidagi savollarning samarali natija bergani ko'rsatib o'tilgan.

Raqamli texnologiyalar yordamida hamshiralikda kreativ kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tadqiqotlar ham (Mishra & Koehler, 2006; Kolb, 1984; Mayer, 2009) ta'lim muhitining interaktivligi va o'quvchining subyektiv o'rni uning ijodiy tafakkurini faollashtirishga bevosita xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Asosiy qism. Nancy E. Adams esa o'z ilmiy maqolasida Bloom taksonomiyasining eski va yangi talqini solishtiradi va taksonomiyaning oltita kognitiv ko'nikmalarga atroflicha izoh beradi. Hamda taksonomiyaning yuqori bosqichlari quyi bosqichlaridan keyin hosil bo'lishini ta'kidlaydi. Bugungi sog'liqni saqlash ta'limi sohasidagi o'qituvchilar Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlari – tanqidiy fikrlash, tahlil, baholash, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishni istasalar-da, ko'plab o'quv dasturlari va mashg'ulotlarda o'quv maqsadlari asosan taksonomiyaning quyi bosqichlari — “bilim” va “tushunish” darajasidagina cheklanib qolayotganini ta'kidlaydi[2].



1-rasm. Bloom taksonomiyasi.

Juliana da Silva Garcia Nascimento o'zining maqolasida hamshiralarni o'qitishda o'qitilayotgan narsa bilan amalda sodir bo'layotgan voqelik o'rtasidagi tafovutni kamaytirishga qaratilgan ta'lim metodologiyalarini qo'llashni tavsiya qiladi. Chunki aynan shunday metodlar bilan hamshiralar va hamshiralik yo'nalishida o'qiyotgan

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

talabalar uchun kreativ va klinik kompetentlikni rivojlantirish mumkin bo'ladi. Va maqolada Bloom tomonidan taklif etilgan tasnif ta'limni uchta asosiy soha (domen)ga ajratishi ham ta'kidlab o'tilgan. Bu domenlar quyidagilar hisoblanadi:

- kognitiv domen - intellektual o'rganish,
- psixomotor domen - harakat tizimi orqali faoliyat bajarish ko'nikmalari,
- affektiv domen - qadriyatlar, hissiyotlar va munosabatlarga oid jihatlari [1].

Shu bilan birga, O'zbekiston oliy tibbiy ta'lim tizimida ham bo'lajak hamshiralarni kreativ fikrlashga yo'naltirilgan darslar, loyiha asosidagi topshiriqlar va reflektiv savollarni qo'llash zaruriyati ortib bormoqda. Biroq amaliyotda Bloom taksonomiyasi asosida kreativ kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan metodikalar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Bloom taksonomiyasining yangilangan modeliga ko'ra — bilim, tushunish, qo'llash, tahlil, baholash va yaratish bosqichlari orqali o'qitish kreativlikni rivojlantirishda kuchli poydevor bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotda aynan "yaratish" bosqichi – yangi g'oya ishlab chiqish, muqobil yechimlar topish, kasbiy topshiriqlarga ijodiy yondashuv orqali talabalarning kasbiy ijodkorligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, ishda konstruktivistik yondashuv, muammoli ta'lim, reflektiv o'qitish kabi ilg'or pedagogik yondashuvlar orqali kreativ kompetentlikni bosqichma-bosqich shakllantirish metodikasi ishlab chiqiladi.

Natijada, Bloom taksonomiyasi asosida tuzilgan darslar modeli bo'lajak hamshiralarda tanqidiy va ijodiy fikrlash, yangicha qaror qabul qilish, o'z kasbiy faoliyatiga yangilik kiritish ko'nikmalarini samarali rivojlantirishi isbotlanadi.

1-jadval.

Bilim	Eslab qolish, aniqlash	Dorilar nomini yod olish
Tushunish	Izohlash, ta'rif berish	Kasallik simptomini sharhlash
Qo'llash	Ishlatish, simulyatsiya qilish	Qon bosimini o'lchash va reaksiya qilish
Tahlil	Taqsimlash, sababni topish	Asorat sabablarini aniqlash
Baholash	Qaror chiqarish, tanlash	Parvarish strategiyasini baholash
Yaratish	Yechim ishlab chiqish, yaratish	Individual parvarish rejasini tuzish

Hamshiralik ta'limida Bloom taksonomiyasining yangi talqinini qo'llash 1-jadvalda o'z aksini topgan.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Xulosa. Bloom taksonomiyasining bilim, tushunish, qo'llash, analiz, sintez va baholash kabi bosqichlari bo'lajak hamshiralarni mustaqil fikrlovchi, muammolarni hal qila oluvchi va ijodiy yondashuvga ega mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Har bir bosqichda o'quvchilarni chuqur fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga va yangilik yaratishga yo'naltiruvchi metodlar (muammoli ta'lim, loyiha usuli, reflektiv yondashuv) qo'llanilishi lozimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan interaktiv metodlar (simulyatsiya, vizual vositalar, taqdimotlar) orqali kreativ kompetentlikni shakllantirish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. O'quv jarayonini Bloom taksonomiyasi asosida loyihalash — bu nafaqat dars sifati, balki sog'liqni saqlash tizimiga tayyorlanayotgan mutaxassislarning kasbiy salohiyatini oshirish yo'lida ham muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Juliana da Silva Garcia Nascimento “Development of Clinical Competence in Nursing in Simulation: The Perspective of Bloom’s Taxonomy” *Revista Brasileira de Enfermagem* (2021) DOI: 10.1590/0034-7167-2020-0135

2. Nancy E. Adams “Bloom’s Taxonomy of Cognitive Learning Objectives” *Journal of the Medical Library Association* (2015) PMID: PMC4511057

3. Runco, M. A., & Jaeger, G. J. (2012). The standard definition of creativity. *Creativity Research Journal*, 24(1), 92–96.
<https://doi.org/10.1080/10400419.2012.650092>

4. Ivanova, D. G. (2021). Pedagogicheskie usloviya razvitiya kreativnoy kompetentnosti studentov-medsester. *Vestnik Meditsinskogo Obrazovaniya*, 2(24), 52–57.

5. Ibodova U. Sh “Bo'lajak hamshiralarni kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda didaktik yondashuvlar va raqamli ta'lim” “PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA” xalqaro ilmiy-metodik jurnal №6(23) 2025 ISSN 2181-3787 E-ISSN 2181-3795.